



## XALFACHILIK BILAN BOG'LIQ AN'ANA, URF-ODAT VA MAROSIMLAR

**Razzaqova Guzal Qadirovna**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Chirchiq filiali  
Ijtimoiy fanlar va xorijiy tillar kafedrası

O'qituvchisi T.F.F.D [phd]

+998 93 710 33 09

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19565855>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 09-aprel 2026 yil  
Ma'qullandi: 12- aprel 2026 yil  
Nashr qilindi: 14- aprel 2026 yil

### KEY WORDS

*xalfachilik, an'ana, urf-odat, marosim, madaniy meros, ayollar san'ati, folklor, ijtimoiy hayot.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada o'zbek xalqining boy madaniy merosida muhim o'rin tutgan xalfachilik an'analari, unga xos urf-odatlar va marosimlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xalfachilikning jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, ayniqsa ayollar orasida madaniy qadriyatlarini saqlash va avloddan-avlodga yetkazishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, turli marosimlar (to'y, sunnat, bayramlar) jarayonida xalfa faoliyatining o'ziga xos jihatlari ochib beriladi.*

Xorazm vohasi xalfachiligidagi o'ziga xos jihatlarga an'ana va zamonaviylikning uyg'unlashuvi, qadimiy folklor namunalari, hozirjavoblik bilan qo'shiqlar yaratish, tanlangan matnlarning yaxlitligi va ma'nodorligiga e'tibor qaratish, kuyning rang-barangligi, ijroning sho'x, ko'tarinkiligiga ega. Shuningdek, voha xalfachiligida "ustoz-shogird"lik an'analari kuchliligi, ijro uslubi avloddan-avlodga o'tishi va oilaviy vorislik kabi xususiyatlar ham ko'zga tashlanadi.

O'zbek xalqining asriy an'analari o'zida mujassamlashtirgan Xorazm xalfachiligining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ustoz-shogirdlik munosabatlarida ko'rinadi. Ushbu an'ananing ilk davri diniy kitoblar qiroati bilan bog'liq bo'lganligi uchun savodxonlik va yoqimli ovoz sohibligiga ega bo'lishlik xalfalar uchun zarur bo'lgan eng asosiy shartlardan biri bo'lgan hamda ushbu an'analari hanuzgacha davom etib kelmoqda.

Xalfachilik an'anasida ko'pgina ustoz xalfalar o'chmas iz qoldirgan. Ular xalqona ijrolari tufayli aholi orasida juda mashhur bo'lib, alohida e'tiborga ega bo'lganlar. Xalfalar xalq, asosan xotin-qizlarning dardu alamlari, hasrat-nadomatlarini, dil isyonlari, muhabbat va sadoqati hamda insoniy tuyg'ularini og'zaki ifodalashlari bilan yuksak san'at turi sifatida yuqori darajaga ko'tarildi.

Ustoz xalfalarning fikricha, "xalfa" atamasi Xorazm madaniyatida "shogird", ya'ni ustozning munosib shogirdi ma'nosida ishlatilib kelinadi. Binobarin, har bir shogird xalfaning o'z ustozini bo'lishi kerak. Shogird ustozini san'atini ko'p yillik ta'lim-tarbiya davomida mukammal egallab hamda zarur insoniy fazilatlarga ega bo'lgach, ustozining roziligiga erishadi va shundan so'ng xalfachilikni bo'yniga olishi mumkin. Shunga ko'ra, ustoz ko'rmagan xalfani xalq ham tan olmaydi, degan gaplar aholi orasida uchraydi.

“Ustoz-shogirdlik” an’anasi nisbatan keyingi davr hodisasi bo’lishiga qaramay, baxshilik amaliyotida shogird tayyorlash “Xalq dostonlarini eshitish eng birinchi va asosiy shart bo’lgan bo’lsa”, xalfachilikda bunga ifodali o’qish (qissaxon xalfalar), individual (yakkaxon) ijod qilish (shoira xalfalar) va badihago’ylikni egallash (to’y qo’shiqlari, kelin salom va yor-yorlarni aytuvchi xalfalar) kabi omillar zarur hisoblangan. O’tmishda xalfalar repertuaridagi asarlar ustozdan shogirdga bevosita o’rganish va ijro jarayonida o’tib kelgan bo’lsa, keyingi davrlarda ushbu holat birmuncha o’zgardi. Ya’ni, ustoz xalfalar repertuaridagi qator asarlarning nashr etilishi, radio va televideniye orqali targ’ib qilinishi, turli madaniy-ma’rifiy ko’rik-tanlovlarning respublika hamda hududlarda o’tkazilishi yosh xalfalarning ijrochilik mahoratini oshirish imkoniyatini kengaytirdi. Shunday qaramay, hozirgi kunda davom etayotgan xalfachilikning yosh avlod vakillari ushbu an’anadan asosan, jonli ijro va ustozlar bilan bevosita ijodiy hamkorlik jarayonida ko’proq bahramand bo’lmoqda.

Xorazm vohasida “ustoz-shogird” maktabi uzoq muddatga mo’ljallangan dargoh bo’lib, unda ashula, raqs, kuy hamda she’riyat asoslaridan saboq berilgan. Maktab ko’rmagan malakasiz ashulachi yoki musiqachi jamiyatda e’tibor qozona olmagan. Shu bois “ustoz ko’rmagan shogird har maqomga yo’rg’alar” degan ibora xalq orasida yuradi. Ustoz san’atning sir-asrorlarini o’rgatish bilan bir qatorda, shogirdning axloqiy tarbiyasiga ham javobgar bo’lgan. Shu bilan bir qatorda ustozga ham ajdodlar san’atining benazir an’analarini shogirdlariga yetkazishda alohida mas’uliyat yuklangan. Ustozlar azaliy qadriyatlarning suyanchi va tayanchi hisoblangan. Ustoz bor joyda xalfachilik san’ati mukammal darajada rivojlanib, maktab yaratgan ustoz esa xalq orasida buyuk inson hisoblangan. Shogird esa ustozining aynan ko’chirma nusxasi, unga quruq taqlid qiluvchi emas, balki ustoz o’rgatganlaridan tashqari o’zi ham ijod qila oladigan va o’z ustida ishlaydigan bo’lishi shart bo’lgan.

### ASOSIY QISM

Xalfachilik an’analarini o’rganish ham o’ziga xos maktab uslubiga ega bo’lgan. Eski usul maktablarida xat-savod chiqargan, bilimga ixlosmand qizlar taniqli xalfalarga 4-5 yil davomida shogird tushgan. Ular shogirdlik davrida ustozlaridan to’y va boshqa oilaviy marosimlarda aytiladigan qo’shiq, doston hamda g’azallarni o’rgangan. Xalfalar shogirdlarini o’zlari bilan birga to’y-ma’rakalarga olib borgan, birga o’tirib, birga kuylagan yoki raqsga ham tushgan. Ustoz xalfa ba’zan shogirdning yakka o’ziga ham ijro etishga ruxsat bergan. Bu bilan ustoz o’z shogirdini jamoatchilikni o’ziga jalb qila olishi va san’atini ko’rsatishiga alohida ahamiyat bergan. Shunday sinovlarda chiniqqan va jamoatchilikning olqishiga sazovor bo’lgan shogirdlar ustozlaridan fotiha olib, xalfa nomiga ega bo’lgan. Shogird fotiha olish uchun o’z uyiga hurmatli xalfalar va o’z ustozini chaqirib, ziyofat berib, bir sidra kiyim-bosh hadya qilgan. Bungacha birorta shogird mustaqil tarzda o’zi to’y-marosimlarda ishtirok eta olmagan

Fotiha olgan xalfa mustaqil ravishda to’y va marosimlarga borib, xotin-qizlarga o’z san’atini namoyish qilish huquqiga ega bo’lgan. Xalfalar orasidagi ustoz-shogird munosabatlaridagi ushbu hurmat kategoriyasi faqat xalfalarning shogirdlik davrida davom etmagan, aksincha shogirdlar ustozini hamisha hurmat qilishga harakat qilgan. Fotiha olib, o’zi mustaqil to’ylarga chiqish huquqiga ega bo’lgan xalfalarda ham shunday odat bo’lganki, agar ustoz xalfa bilan shogird xalfa bir to’y va ma’rakaga borib qolsa, ustozining ruxsatisiz shogird xalfa ijrochilikni boshlash huquqiga ega bo’lmagan. Hech bo’lmaganda, ustoz xalfa bir qo’shiq

yoki g'azal kuylab, so'ngra shogird xalfaga navbat bergan. Shundan keyingina shogird xalfa kuylashni boshlagan va davom ettirgan. Agarda ushbu holat buzilsa, xalq tomonidan qattiq qoralangan. Yangi shogird xalfaga nisbatan hurmatsizlik va ustozni haqqiga xiyonat hisoblangan.

Xorazm xalfalari ijodi va qo'shiqchilik san'atining eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular o'zidan ajoyib kuy va qo'shiqlar bilan birga ko'pgina xushovoz ashulachi, raqqosa hamda musiqa bilimdonlari qoldirgan. Masalan, Xorazm xalfalaridan biri Onabibi Qori Otajonovadan tarbiya olgan Nazira Sobirova, Onabibi Jumaniyozova, Raviya Ahmedova va Ullibibi Boyjonova kabi ko'pgina iqtidorli shogird xalfalar yetishib chiqqan. Ularning o'zlari ham qator shogirdlar yetishtirib, bugungi kungacha xalqqa o'z san'ati va ijro mahorati bilan xizmat qilib kelmoqda.

Voha xalfalari ba'zan uchta-uchta bo'lib, o'zlari ijodiy guruhlar ham tuzganlar. Mana shunday guruhlarda ustoz xalfalar shogirdlari bilan bitta guruhga uyushgan holatlari ham ko'p bo'lgan. Guruhdagi xalfalardan biri musiqa chalgan, raqsga tushgan va yana biri qo'shiq kuylab o'ziga xos vazifalarni egallagan. Xorazm viloyati Xonqa tumanida istiqomat qilgan Sharifa xalfa Qozoqovaning bergan ma'lumotiga qaraganda: "Xorazmda inqilobdan ilgari vaqtlarda to'y — ma'rakalarida xalfalar xotin-qizlar o'tiradigan xonaning to'rida ularga qarshi o'tirib, kun botgandan boshlab tonggacha biri qo'yib, biri Xorazm g'azallari, xalq dostonlaridan birining aytganiga ikkinchisi javob bo'ladigan aytishuv qo'shiqlar ham topib kuylagan. Ba'zan ular o'tkazilayotgan to'y-ma'rakalarning xususiyatidan kelib chiqib o'zlari ham qo'shiq to'qib kuylagan. Bunday marosimlardagi xalfalar ko'pincha ustoz-shogird xalfalardan iborat bo'lgan. Shuni qayd etish joizki, xalfalarning guruh bo'lib ijod qilishida "ustoz-shogird"lik an'analari va ularning uzviy munosabatlari bilan ham bog'langan.

#### XULOSA

"Ustoz-shogird"lik an'anasi vohada xalfachilikning muhim omili hisoblangan. Zero, xalfachilik ham o'zining mazmun-mohiyati va ifodasi usuliga ko'ra sinkretik san'at hisoblanadi. Buyuk faylasuf va musiqashunos Abu Nasr Forobiy o'zining san'atga oid yozgan asarlarida ustozday buyuk nomga ega bo'lish asoslarini quyidagicha ta'riflaydi: "...ustozlar iqtidori uchta bosqichda bo'ladi: g'ariza (tabiiy kuch, instinik), his va aql". G'ariza – insondagi sozga bo'lgan moyillik, uning kuy eshitish, chalish, aytish qobiliyati. His etish (intuitsiya) – kuyni ruhiy holatda o'zlashtirish. Aytaylik, sozanda kuy chalayotganda qaysi parda qaysi ohang ekanligini o'ylab o'tirmaydi

Uzoq davrlardan buyon Xorazmdagi to'y, sayl va aza marosimlarida xotinqizlar davrasida xalfalar ijodi ma'lum bo'lib kelgan. Jumladan, Xorazm vohasi keksa avlod vakillarining bergan ma'lumotlariga qaraganda, qadimdan vohada "Qizil gul" bayrami o'tkazilgan, ushbu bayramda qo'buz chala olmaydigan, qo'shiq ayta olmaydigan, o'yinga tushmagan qiz bo'lmagan. "Qizil gul" bayrami XX asrning 20- yillarigacha bahor bayrami sifatida nishonlangan. Xalfa san'atining o'ziga xos qirralari zamon talablariga muvofiq shakllangan va rivojlangan. Xorazm vohasida azaldan davom etib kelayotgan an'anaga muvofiq xalfalar ijod qilgan. Ular "ustoz-shogird" uslubida o'z ijodidagi qo'shiq va dostonlarni shogirdlariga o'rgatgan. Bugungi kunda xalfalarning "ustoz-shogird" an'analari yangicha, zamonaviy ko'rinishlarda bo'lsa ham davom etmoqda. Xorazm vohasining bulbuligo'yo xalfalarining bugungi kundagi davomchilari ham ko'p.

Shuni xulosa qilamanki Xalfalar ma'raka va motam marosimlarida shunga o'xshash ibratli hikoya va ertaklar bilan odamlarga pand-nasihati qilib ularga dunyoning o'tkinchiligi,

inson hayotdan mazmunli yashab o'zidan yaxshi nom qoldirishga harakat qilishi kerakligini uqtirishga harakat qiladi.

Shuningdek, xalfalar repertuaridagi asarlarning janriy rang-barangligi va mavzu turfaligi umumo'zbek og'zaki poetik ijodi doirasida bo'lib, ularning ijro va ijoddagi talqinida Xorazm ayollariga xos asriy san'at an'analari, ko'tarinki ruh bilan betakror nafosatni uyg'unlashtiruvchi uslub gavdalanadi.

Xalfachilik qadim ajdodlarimizning diniy, oilaviy-maishiy marosimlari zaminida vujudga keldi va vaqtlar o'tishi bilan takomillashib bordi, uning psixologik, estetik va yo'naltiruvchanlik vazifalari ham muayyan davrga monand hamohanglik kasb etdi. Ibadat bilan bog'liq ilk xususiyati qisman saqlangan holda yangi jihatlar – dunyoviy motivdagi asarlar yaratish, kuylash, to'y- tantana, motam, bayram va boshqa ommaviy marosimlardagi ishtiroki kengayib borgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ro'zimboyev S., Ro'zmetov H. Folklor atamalarining qisqacha lug'ati / O'quv uslubiy qo'llanma. – Urganch, 2007. – B.8-9.
2. Ro'zimboyev S., Ro'zmetov H. Folklor atamalarining qisqacha lug'ati ... – B.10-11
3. Nurjanov K., Jumaniyozova M. Xonqa tarixi. – Urganch: Xorazm, 2015. – B. 93-94.
4. Xorazm viloyat xalq ijodiyoti va madaniy-marifiy ishlar ilmiy-metodik markazi hisobotlari. 2017- yil.
5. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Urganch shahri. 2023- yil. 153 Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Xiva shahri. 2016- yil.
6. Toshmurod Mirzayev. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
7. Malika Rahmonova. O'zbek marosim folklori. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
8. Karomat Mullaxo'jayeva. O'zbek xalq an'analari va urf-odatlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
9. Ibrohim Yusupov. Xalq marosimlari va an'analari. – Nukus: Bilim, 2008.
10. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. O'zbek etnografiyasi. – Toshkent: Fan, 2016.